FALSAFA

Azimov Ulug‘bek Abduxalilovich (Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

IJTIMOIYLASHUV JARAYONIDA QADRIYATLARNING ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiylashuv tushunchasi, milliy qadriyatlarning madaniy ijtimoiylashuv bilan chambarchas bog‘liqligi, ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta’siri ostida shakllanish jarayoni ekanligi, ijtimoiylashuv omillari, ijtimoiylashuv jarayoni yoshlarning turli xil sharoitlar bilan bevosita birgalikdagi harakati jarayonida amalga oshishi va ularning faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *demokratik islohotlar, qadriyat, milliy qadriyatlar, umumiy qadriyatlar, qadriyatlar shakllanishi, ijtimoiylashuv, ijtimoiy muhit, ijtimoiy omillar, ijtimoiy tizim.*

Азимов Улугбек Абдухалилович (доцент Международного института пищевых технологий и инженерии, доктор философских наук (PhD)

РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается понятие социализации, тесная связь национальных ценностей с культурной социализацией, то, что социализация-это процесс формирования личности под влиянием культуры и общения, факторы социализации, то, что процесс социализации происходит в процессе непосредственного взаимодействия молодых людей с различными условиями и их влиянием на их деятельность. Приведены сведения по вопросам демонстрации его влияния.*

Ключевые слова: *демократические реформы, ценность, национальные ценности, общие ценности, формирование ценностей, социализация, социальная среда, социальные факторы, социальная система.*

Azimov Ulugbek Abdukhalilovich (Associate Professor of the International Institute of Food Technology and Engineering, Doctor of Philosophy (PhD)

THE ROLE OF VALUES IN THE PROCESS OF SOCIALIZATION

Annotation. *This article provides information on the concept of socialization, the close connection of national values with cultural socialization, the fact that socialization is a process of human formation under the influence of culture and communication, the factors of socialization, the fact that the socialization process takes place in the process of direct interaction of young people with various conditions and their impact on their activities.*

Keywords: *democratic reforms, value, national values, common values, value formation, socialization, social environment, social factors, social system.*

Kirish. Jamiyat hayotida ijtimoiylashuv jarayonining qadriyatlarning shakllanish jarayoni sifatida qaralishi, qadriyatlarning ijtimoiy rivojlanish jarayonida alohida o‘ringa ega ekanligi, ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta’siri ostida shakllanishi, qadriyatlarning ijtimoiy hayotdagi o‘ziga xos funksiyalari ushbu mavzu doirasida muhim vazifalarni belgilab olishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ijtimoiy muhit ijtimoiylashuv tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Madaniy sotsium va shaxsning ijtimoiylashuvi tushunchalari chambarchas bog‘liqdir va bu I.T. Frolova tasnifida ham yaqqol namoyon bo‘lib turibdi. U “qadriyat” tushunchasini “atrof-muhitning ijtimoiy tasniflanish obyekti, inson va jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ta’sir o‘tkazadi: ezgulik, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va nojo‘ya, tabiat va jamiyat hayoti hodisasi sifatida ko‘rilgan” [1;719-b.].

Ijtimoiy tizim miqiyosida umumiy qadriyatlarning bo‘linishi nazarda tutiladi. Ijtimoiylashuv jarayoni qadriyatlar shakllanish jarayoni sifatida ko‘riladi.

Milliy qadriyatlar madaniy ijtimoiyllashuv bilan chambarchas bog‘liq, bir tomondan, bular jamiyatni birlashtiruvchi asosidir, boshqa tomondan ijtimoiy muhitning ta’siri ostida shakllanadi. Ijtimoiylashuv masalalarini o‘rganishning sotsiologik va ijtimoiy-psixologik yo‘nalishlarini ajratish mumkin. Sotsiologik yo‘nalish individning ijtimoiylashuvini ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishish uchun ma’lum bir ijtimoiy xususiyatlarni o‘zlashtirish bilan aloqadorlikni, ijtimoiy-psixologik yo‘nalish esa ijtimoiylashuvda ontogenez davrida ijtimoiy me’yor, madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni aks etishini ifoda etadi.

Amerikalik sotsiolog N.Smelzer “ijtimoiylashuvni ijtimoiy rolga muvofiq keluvchi ko‘nikma va ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish jarayoni” tarzida aniqlashtirgan [2;652-b.]. G.Tard jamiyatni yaxlitlikda avloddan avlodga o‘tib borish hamda qadriyat va ustanovkalarni o‘zlashtirish orqali individual ongning mahsuli sifatida talqin etadi. Uning fikricha, qadriyat va ustanovkalarni o‘zlashtirish barcha ijtimoiy

hayotning izohli tamoyilini aks ettiruvchi "taqlid" tushunchasida o'z ifodasini topadi [3;480-b.]. Amerikalik sotsiolog F.Giddings ijtimoiy organizmning tashkil topishida, istisno tariqasida, psixologik asos yotadi. Uning fikricha, birgalikdagi o'zaro faoliyat umumiy qadriyatlar tarkib toptiriladigan ishonch va taqlid mexanizmi orqali sodir bo'ladi. Jamiyatning ta'siri ostida individda guruhiy ustanovkalar, identiv anglanganlik tarkib topadi [4;369-b.]. Amerikalik olim T.Parsons jamiyatni asosiy funksiyasi biologik ko'payish va yangi avlodni ijtimoiylashtirish yo'li bilan yangilanish bo'yicha ma'lum bir qoidalar tizimi asosida ratsional tashkil topish va mavjud bo'lish sifatida tasavvur qilgan. Shuning uchun jamiyat shaxs ijtimoiy ahamiyatli va nazorat qilinuvchi xulq-atvor na'munalarida ishtirok etishi uchun adekvat motivasiyaning hayotiy sikli jarayonida rivojlanishi uchun ijtimoiylashuv mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim [5;496-b.]. Fransuz sotsiologi E.Dyurgeymning konsepsiyasida individ va jamiyatning o'zaro harakati jarayonining asosida insonning ikki xil tabiati yotadi. Bir tomondan, u individuallikni aniqlab beruvchi psixik holatlar majmuyidan tashkil topsa, boshqa tomondan, o'z ajdodlarining g'oyalari, his-tuyg'ulari va odatlari majmuyini ommalashtiruvchi hamdir. Ana shundan kelib chiqqan holda, jamiyatda o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiylashtirish maqsadga yo'naltirilgan tavsifga ega bo'lishi lozim [6;253-b.].

Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir [7;173–174-b.].

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "ijtimoiylashmoq" tushunchasi "ijtimoiy tus olmoq" [8;178-b.] ma'nosini anglatilishi ko'rsatilgan. Ijtimoiy tus olish tushunchaning umumiy mohiyatini ochib beradi. Biroq uni ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan, tahlil etilganda tushuncha mazmunini keng, batafsil yoritish taqozo etiladi. Zero, "ijtimoiy tus olish" aynan natijani ifodalashga xizmat qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvida va aynan pedagogik talqinda natijadan avval jarayonning mohiyati, uning kechishini o'rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. N.Egamberdiyevaning fikricha, ijtimoiylashuv va kasbiy yetuklik jarayonlari kasbiy ta'limni, bir vaqtning o'zida, ham shaxsning individual rivojlanishi, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ham talabaning shaxsiy va kasbiy nuqtai nazarini shakllanishiga yo'naltirilgan bo'lishini talab qiladi. Ushbu jarayonlarning muvafaqqiyati quyidagi ikkita shartni amalga oshirishni talab etadi: talaba-yoshlarni faol ijtimoiy va kasbiy munosabatlarga jalb etish, birgalikdagi samarali ijtimoiy va kasbiy faoliyat jarayonida shaxsning o'z-o'zini to'la namoyon eta olishiga imkoniyat yaratish [10;127-b.].

Muhokama. Inson tug'ilishi bilanoq ma'lum ijtimoiy muhitga kelib tushadi va doimo uning ta'sirida bo'ladi, rivojlanadi va tarbiyalanadi, aynan shu muhitda uning shaxsiy xususiyatlari shakllanadi va bular uning ushbu muhitga ta'sir o'tkaza olish imkoniyatini yaratadi. Muhit tabiiy yoki ijtimoiy bo'lishi mumkin. Har biri alohida elementlardan iborat va bola shaxsiga turli xil ta'sirga ega. Tabiiy muhit o'z ichiga tabiat, o'simlik dunyosi, inson hayotidagi geografik sharoitlar, o'sib kelayotgan va rivojlanayotgan shaxsga bevosita ta'sir o'tkazadi. Bu uning turmush tarzi, atrofi va kasbiga ham bog'liq.

Ijtimoiy muhit–bu insonning ijtimoiy dunyosi, o'z ichiga insonlarni rivojlantirish, faoliyati uchun sharoit yaratadi. Inson ijtimoiy muhitga nafaqat bog'liq, balki o'z faol harakatlari bilan uni o'zgartiradi, shu bilan birga, o'zini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mavjud sharoitlar insonni yaratadi, ba'zan esa, aksincha, inson sharoitni yaratadi.

Shaxsni o'rab turgan ijtimoiy muhit ham faol ko'rinishga ega bo'ladi va insonga ta'sir, bosim o'tkazadi, ijtimoiy nazoratga bo'ysundiradi, "bor modellar bilan "zararlaydi", ba'zida ma'lum yo'nalishdagi ijtimoiy xulqga majburlaydi".

Ijtimoiylashuv omillari–ijtimoiylashuv jarayoni ro'y beradigan mexanizmlar. Ijtimoiylashuv omillari–ijtimoiylashuv jarayoni uchun yaratiladigan sharoit va vaziyatlar. Qanchalik jihatlar ko'p bo'lsa, ularni biriktirish variantlari ko'p bo'ladi, shu bilan ijtimoiylashuv omillari ham ko'p bo'ladi. Ijtimoiylashuv omillari, ijtimoiylashuv jarayoni yoshlarning turli xil sharoitlar bilan bevosita birgalikdagi harakati jarayonida amalga oshadi va ularning faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Insonga ta'sir etuvchi sharoitlar omillar deyiladi. Aslida, ularning barchasi o'rganilmagan va aniqlanmagan. O'rganilmagan omillar to'g'risidagi bilimlar yetarli emas, ba'zilar to'g'risida ko'p, boshqalari haqida kam ma'lumotlar bor. O'rganilgan ijtimoiylashuv sharoitlar va omillarni rasman 4 guruhga bo'lish mumkin.

Birinchisi, megaomillar (mega–juda katta, umumiy)–yer sharidagi barcha aholini ijtimoiylashuviga ta'sir o'tkazuvchi omillar: fazo, sayyora va dunyo.

Ikkinchisi, makroomillar (makro–katta)–ma'lum mamlakatlarda yashovchi ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi, ekologik, demografik, iqtisodiy omillar, mamlakat, etnos, jamiyat va davlat omillari.

Uchinchisi, mezoomillar (mezo–o‘rtacha, oraliqdagi) katta guruhdagi insonlarning ijtimoiylashuv sharoitlar, yashash joyi va ovulgoh sharoitlariga qarab belgilanadi (hudud, qishloq, shahar va shaharcha), ommaviy kommunikasiya turlariga qarashliligiga qarab (radio, televideniya va b.k.), u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga qarab, etnik qarashlar va hududiy sharoitlar yaratiladi va shakllanadi.

Mezoomillar ijtimoiylashuv jarayoniga to‘g‘ridan to‘g‘ri va bilvosita to‘rtinchi guruh–mikroomillar orqali ta’sir o‘tkazadi. Ularga konkret insonlarga bevosita ta’sir o‘tkazadigan omillar–oila, qo‘ni-qo‘shnilar, tengdosh guruhlar, ta’lim maskanlari, tarbiya maskanlari, tupli xil jamoat va davlat tashkilotlari, diniy va xususiy tashkilotlar, mikrosotsium. Bu shaxs rivojlanishi ro‘y beradigan eng yaqin muhit sotsium va mikrososium deb ataladi.

Mikroomillarning turlarini aytish mumkin: mehnat va ishlab chiqarish, jamoaviy-siyosiy, oilaviy, ta’lim va tarbiyaviy, harbiy va h.k.

Aytish joizki, shaxsning rivojlanish omillari kabi masalalar fiziologiya, genetika, neyrofiziologiya, neyropsixologiya, bioximiya, psixologiya, sosiologiya, ijtimoiy psixologiya kabi fanlarning asosiy muammolari hisoblanadi.

Natijalar. Bu masalalarni yechishda jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi “Ijtimoiy fikr” ijtimoiy tadqiqotlariga suyangan holda amalga oshirildi. Tadqiqotlar yordamida nafaqat yoshlar ongida yangi hodisalarva tendensiyalarni aniqlashga erishildi, balki hozirgi zamonda yoshlarni qiynayotgan muammolar aniqlandi va ularning o‘z ijtimoiy istaklarini, qadriy qarashlar, manfaatlar, aktiv faoliyat, ideallar tizimi shakllanishi jarayoni haqidagi tasavvurlari o‘rganildi [11;2-b.].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talaba-yoshlarning qarashlari, fuqarolik pozitsiyasi bir nechta ijtimoiy omillar ta’siri ostidadir. Yoshlar tadqiqotda shuni aytib o‘tishdiki, ularning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda asosiy omillari sifatida oila (85,9 foiz), muloqotning ijtimoiy muhiti (40,8 foiz), mahalla (38,8 foiz), ta’lim dargohlari (33,5 foiz), OAV va internet (32,7 foiz), do‘stlar (27 foiz) alohida o‘rin tutadi.

Bo‘lajak mutaxassislarning fuqarolik pozitsiyasiga ta’sir o‘tkazuvchi, yashash joyiga bog‘liq bo‘lgan omillar haqida turli tasavvurlar mavjud. Misol uchun, shaharlik yoshlar, qishloqda yashaydigan yoshlarga qaraganda OAV va internet ta’sirini belgilagan (35,4 foiz va 30,1 foiz) va do‘stlar (35,4 foiz va 18,9 foiz). Qishloq yoshlari fikriga ko‘ra, shaharda yashaydigan yoshlarda mahallaga katta ahamiyat beriladi (42,9 foiz va 34,5 foiz) va ta’lim dargohlari (26,9 foiz va 39,9 foiz). Shunday xulosa kelindiki, yoshlarning fuqarolik va dunyoviy pozitsiyalariga ta’sir etuvchi omillar ularning hayotiy pozitsiyalari: oila, sog‘liq, ta’lim, Vatanga xizmat kabi omillarga bog‘liq.

Xulosa. O‘zbekistonlik yoshlar uchun dominant hayotiy pozitsiyalar bu oila, sog‘liq va Vatanga xizmat. Mamlakatdagi yoshlarning hayotiy qadriyatlari ularning jinsi va yoshiga bog‘liq.

Ko‘rsatilgan javoblar ham shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda olib borilayotgan yoshlar siyosatining samaradorligi, yoshlarning hayotiy qadriyatlarida asosiy rolni ta’lim egallab kelmoqda va bu yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Bu yosh o‘zbekistonliklarning o‘z ta’lim darajasini oshirishga qaratilgan istakda aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Философский словарь. Под ред. Фролова И.Т. М., 2001, 719 с.

(2). Смелзер. Н. Социология. Пер. с англ., М., “Феникс”, 1994, 652 с.

(3). Тард Г. Законы подражания. Пер. с фр., М., “Академический проект”, 2011, 480 с.

(4). История теоретической социологии. В 4 т, отв. ред. и сост. Ю.Н.Давыдов. М., “Канон”, 1997, т. 1, с. 369.

(5). Американская социологическая мысль. Тексты. Под.ред. В.И.Добренькова, М., 1996, 496 с.

(6). Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. М., “Канон”, 1995, с. 253.

(7). Фалсафа. Қомусий луғат. Қ.Назаров. Т., “Шарқ”, 2004, 496;.173–174-бетлар.

(8). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд, Е–М, Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006, 178-бет.

(9). Эгамбердиева Н. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти. Пед. фан. док. ... дисс., Т., 2010, 332; 127-бетлар.

(10). Информационно-аналитический доклад по результатам социологического исследования. “Молодёжь Узбекистана: жизненные ценности, нравственность, социальные ориентиры”, 2017, 2 с.

(11). Azimov U., Umurzakov A. Hierarchy of values and personal values. “Экономика и социум”, 2021, №. 1-1 (80), с. 354–355.

(12). Рафиқова Д., Азимов У. Modernization of education and increasing the quality of education “Экономикаисоциум”, 2021, №. 2-2, p. 167–169.